



## BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING NUTQINI XALQ OG‘ZAKI IJODI VOSITASIDA O‘STIRISH TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

*Olimova N.Q.*  
*FDU, o‘qituvchi*

**Tayanch so‘zlar:** nutq, metodika, nutq aspektlari, hayotiy ko‘nikmalar, inson kamoloti, buyuk allomalar, ma‘naviy meros, sharqona ta‘lim va tarbiya, adabiy til normalari, tafakkur va notiqlik san‘ati, ta‘lim sifati.

**Ключевые слова:** речь, методика, аспекты речи, жизненные навыки, развитие человека, великие учёные, духовное наследие, восточное образование и воспитание, нормы литературного языка, искусство мысли и речи, качество образования.

**Key words:** speech, methodology, aspects of speech, life skills, human development, great scholars, spiritual heritage, oriental education and training, norms of literary language, art of thought and speech, quality of education.

Dunyoda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining talaffuzi va nutqini o‘stirish jarayonining pedagogik-psixologik mexanizmlarini takomillashtirish, yangi g‘oyalar yaratish va o‘quvchilarning yozma va og‘zaki nutqini rivojlantirishni imkonini beradigan xalq og‘zaki ijodi namunalarini tanlashga doir nazariy tadqiqotlar olib borilmoqda. Dunyo xalqlari pedagogik tafakkurida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining talaffuzi va nutqini o‘stirish tendensiyalari, nutqiy savodxonlik darajasini baholash, ularning boshqa xalqlar psixologik-pedagogikasiga ko‘rsatayotgan ta‘sirini aniqlash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining talaffuzi va nutqini o‘stirishning pedagogik yondashuvlarini ishlab chiqish va shunga muvofiq ta‘lim texnologiyalarini ham takomillashtirib tizimlashtirish muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda ta‘lim sohasida tub islohotlar amalga oshirilib, ko‘plab yutuqlarga erishilmoqda. Aytish joizki, mazmuni va tuzilishi yangilangan o‘quv darsliklari hamda ta‘limiy vositalarning qayta yaratilishi o‘quvchi yoshlarning bilimini oshirish bilan bir qatorda nutqiy ko‘nikmalarini ham takomillashtirishga xizmat qiladi. Xususan, ona tili darsliklarida nazariy, badiiy, rasmiy, tasviriy, muhokama matnlarning berilishi ta‘lim sifati va samaradorligini



oshiradi. Shu nuqtayi nazardan, avvalo, matnning ilmiy asoslanishini anglab yetish muhimdir. “Nutq jarayonida gaplar guruhlanadi, mavzu jihatdan qurilishi va ohangiga ko‘ra birlashadi va alohida sintaktik birlik – murakkab sintaktik butunlik hosil qiladi. Biroq, matndagi barcha gaplar ham murakkab sintaktik butunlikka kirmaydi, ayrimlari uning tarkibiy qismlari bo‘lmaydi”. Binobarin, nutq jarayonida so‘zlovchining nutqi qisqa holdagi kichik matnlardan iborat bo‘ladi. Atrof va turli- tuman fikrlar jamlanmasi matn mazmuniga mos bo‘lmasligi mumkin.

Xalq og‘zaki ijodining boshlang‘ich sinflardagi tarbiyaviy ahamiyati juda katta, ham tarbiyaviy ham nutq va talaffuzini oshirishga xizmat qiladi.

Rivoyatlar mavzu doirasidan tahlil va misollar bilan yoritiladi. Rivoyatlarni o‘rganish doimo yosh avlod uchun qiziqarli va muhim manba hisoblanadi. Latifa va topishmoqlar esa hozirjavoblikka, tez aytishlar so‘zlarni har doim to‘g‘ri talaffuz qilishga, maqollar so‘zga ko‘rk berishga muhim ahamiyat kasb etadi. Shu tariqa yosh bolalarda o‘qishga bo‘lgan qiziqishini orttirish orqali nut va talaffuzini o‘stirish katta natija beradi.

Qo‘shiqlar xalqimizning quvonchini, shodligini yoki g‘am-hasratini ifodalaydi. Ertaklar bolalar fantaziyasini o‘stirishga katta xizmat qiladi. Har bir aytilgan ertak bolalarda o‘zgacha taassurot qoldiradi. Bolalar doimo sehrgarga o‘xshab qolishni xohlaydi, sehrli buyumlari bo‘lib qolishni xohlaydi, behisob kuchga ega bo‘lib qolishni istaydilar va har bir ertak qahramonini, avvalambor, o‘zida ko‘radi. Ertaklar yordamida koinotga chiqadilar, yerning tagiga kiradilar, yerning tog‘- u toshlari va sahrolarida yuradilar. Ana shu davr mobaynida esa nima yaxshi-yu, nima yomon ekanligini anglay boshlaydilar. Bolalar ulg‘aygani sari ertakchi bo‘lib boradilar. O‘zlaridan kichiklarga ertaklar aytib beradilar, ba‘zida esa o‘zlari yaxshilik haqida ertaklar to‘qib aytadilar. Umuman olganda, xalq og‘zaki ijodi yosh-u qari uchun “Donishmandlik majmuasi” hisoblanadi. Asrlar davomida xalq og‘zaki ijodi doim hamma uchun birdek zavqli va kerakli badiiy asar turi bo‘lib qolaveradi. Ma‘naviyat – qadim qadimdan insonni shaxsiy ijobiy sifatleri, qarashlari, xatti-harakatini, Vatanni va yaqin atrofidagi kimsalarga bo‘lgan ijobiy sifatlarini boshqaruvchi omildir. Ma‘naviyatsiz inson esa loqayd va axloqsiz bo‘ladi. Bunday insonlar esa ma‘naviy qashshoq va muqaddas tushunchalardan yot shaxsdir. Shuning uchun ham yoshi ulug‘ insonlar birinchi navbatda farzandlarini ma‘naviyatli qilib tarbiyalashga xarakat qiladilar. Bolalarni tarbiyalashda xalq dostonlari, ertaklar, maqol va topishmoqlar, masal va rivoyatlar, terma va qo‘shiqlar va boshqa ko‘plab xalqona janrlarning o‘rni beqiyosdir. O‘tgan asrgacha bugungi kunimizdek radio, televideniya, internet kabi ta‘lim va ma‘rifat tarqatuvchi tizim bo‘lmagan. Bu vazifani xalq og‘zaki ijodi bajargan. Natijada esa xalq og‘zaki ijodi bilan birgalikda xalq pedagogikasi tashkil topgan. “Ertaklar – yaxshilikka yetaklar” deb bejiz aytishmagan. Ertaklarning tarbiyaviy ahamiyati katta. Chunki ertaklarda o‘g‘rilik jazolanadi,



yolgʻonchilikning oqibati doimo yomonlik bilan tugaydi; yomon hislatlarning barchasi oxir oqibat tanazzulga yuz tutadi.

Keling xalq ogʻzaki ijodi namunalari va ularning bola talaffuzi va nutqini oʻstirishdagi oʻrni haqida fikr yuritaylik.

Ertak – hayot haqiqati bilan bogʻliq boʻlib, fantastik hamda hayotiy uydirmalar asosida qurilgan, didaktik gʻoya tashuvchi ogʻzaki hikoyalardir. Bolalarni ertak oʻqishga qiziqishlarini hisobga olib quyidagicha tasnif qilish mumkin:

- Ilk bolalik davridagi ertaklar (0 yoshdan 2 yoshgacha);
- Kichik yoshli bolalar ertaklari (2 yoshdan 6 yoshgacha);
- Oʻrta yoshli bolalar ertaklari (7 yoshdan 11 yoshgacha);
- Oʻsmir yoshli bolalar ertaklari (12 yoshdan 16 yoshgacha);

**Ilk bolalik davridagi ertaklar** (0 yoshdan 2 yoshgacha), asosan, judayam sodda va ixcham, bolalarni tinchlantirishga qaratilgan boʻladi. Bu yoshda bolalar ertakni toʻliq tushunmasalarda, ona mehrini ertak orqali his qiladi. Bosh maqsadi farzandini erkalatish va tinchlantirishga qaratilgan boʻladi.

**Kichik yoshli bolalar ertaklari** esa ancha ertakni tushunib qoladilar. Kulguli va gʻamgin joylarini ajrata oladi. His tuygʻuga berila oladi. Haqiqiy ertakni ichida yashay oladi. Ertak ixcham, oz personajli, qisqa matnli va judayam qiziq boʻlishi kerak. Ana shunda bolalar zerikib qolmaydilar. Ertaklar asosan hayvon va qushlar haqida boʻladi. Obrazlari oʻzining yaqin qarindoshlari bilan bir xil boʻlganligi bois qiziqib tinglaydilar (bobo, buvi, ota-ona va togʻa va h.k.). Masalan, “Ur toʻqmoq”, “Oltin tarvuz”, “Qargʻavoy” kabi. Ertak doimo anʼanaviy qolipda boshlanib tugaydi. “Bir bor ekan, bir yoʻq ekan, och ekan, toʻq ekan, boʻri bakovul ekan, tulki yasovul ekan, qargʻa qaqimchi ekan, chumchuq chaqimchi ekan, gʻoz karnaychi ekan, oʻrdak surnaychi ekan, tovuq qoq etti, bilmadim qaqqa ketti” tarzida boshlanib, oxirida 40 kecha-yu kunduz toʻy qilib, murod maqsadlariga yetibdilar deb yakunlanadi.

**Oʻrta yoshli bolalar ertaklari.** Bu yoshda bolalarning fikrlash doirasi ancha kengayadi. Shuning uchun ertaklarni hajmi ham kattalashadi, falsafiyligi oshadi, fikrlashga chorlaydi, qisman oʻylab xulosa chiqarishga harakat qiladilar. Voqea hodisalarning koʻchma maʼnosini ham tushunib yetishga harakat qiladilar. Hayvonlar haqidagi ertaklar hayvonlarga nisbatan mehrli boʻlishni ifodalash bilan hayvonlar zaminida inson obrazini koʻchgan ekanligi ham idrok eta boshlaydilar. Oʻzlarining salbiy sifatlarini koʻrib xulosa chiqaradilar. Koʻp ertak oʻqigan bolalarda mehr-shavqat va mulohazakorlik hislari yaxshi rivojlanadi. Masalan, “Maymun bilan durroj” ertagini oladigan boʻlsan. Bu ertak qisqa ammo mazmunan keng tushunchaga ega boʻlgan ertakdir. Ertakda faqat maymunni dumi qisilib qolib, azobda qolgani emas, balki birovlarining ishiga burun suqmaslik haqida fikr yuritilganligini koʻrishimiz mumkin. Shu mazmundagi “Rostgoʻy bola” va “Uch oʻgʻil ertagi esa” bolalarni birdamlikka, rostlikka, baquvvat boʻlishga chorlaydi.



**O‘smir yoshli bolalar ertaklari.** Bu yoshli bolalarda aqlli bo‘lishni xohlash bilan birga judayam kuchli bo‘lishni xohlaydilar. Kattalarni suhbatiga qo‘shilgisi, o‘zining fikrlarini bildirgisi keladi. Katta-katta ishlarni amalga oshirgisi keladi. Ko‘proq e‘tibor talab qiladi. Ko‘p narsalarga harakat qilmasdan osongina erishgisi keladi. Shuning uchun ham bu yoshda ertaklarning ahamiyati ham keraklidir. Masalan “Susambil” va “Uch og‘a-ini botirlar” ertagi bolalarni ko‘p eshitishni, shoshmasdan qaror qabul qilishni o‘rgatadi. Qahramonlik qilish oson emasligini, uning uchun jumboqlarni yechishni bilishi kerakligi, aql bilan ish qilishni o‘rganish kerakligi, tasodifiy holatlarda yetti o‘lchab bir kesib keyin xulosaga kelish kerakligi o‘rgatiladi.

Ertaklarni yosh xususiyatlariga mos bo‘lishi, bolalarni dunyosini ag‘dar-to‘ntar qilib yubormasligi ham muhimdir. Chunki “Qizil shapkacha” ertagi(rus xalq ertagi)ni oladigan bo‘lsak. Ertakning oxiri yaxshilik bilan tugashi uchun bo‘rining halok bo‘lganini ko‘rishimiz mumkin. Bu esa bolalarni o‘ylantirib qo‘yadi. Avvalgi eshitgan hayvonlar haqidagi ertaklariga havotir bilan qaraydi. Ishonchsizlik paydo bo‘ladi. Hayvonlarga nisbatan mehri nafratga aylanadi. Shuning uchun bunday ertaklar ikki xil yakun qilinsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ertak so‘ngida bo‘rining halok bo‘lishi ammo buvi va nabiraning tirik chiqishi sal bo‘lsada g‘alizlikni oldini oladi. Ammo to‘liq emas. Shuning uchun ham bolalarda bunday ertaklarni o‘qish tavsiya etilmaydi.

“Uch og‘a-ini” ertagi esa aksincha o‘git va nasihatlariga limmo-lim ertak hisoblanadi. Unda ota o‘g‘illariga safarga otlanishi va o‘z baxtlarini topib kelishlarini buyuradi. Va kuzatayotganida: “To‘g‘ri bo‘ling, bexavotir bo‘lasiz”, “Maqtanchoq bo‘lmang, uyatga qolmaysiz”, “Dangasa bo‘lmang, baxtsiz bo‘lmaysiz” kabi nasihatleri ham o‘smirlar uchun ham yoshi kattalar uchun bemalol “Xalq pedagogikasi” vazifasini bajaradi.

**Rivoyatlar.** Rivoyatlar mazmun yo‘nalishiga ko‘ra bir necha turlarga bo‘linadi. Tarixiy rivoyatlar o‘z vatani uchun jonini qurbon qilgan farzandlar mardligini kuylaydi. Masalan, To‘maris, Shiroq, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik kabi. 3-sinf o‘qish darligida “Ibn Sinoning shogirdlari”, “Bobur va kabutar” rivoyatlari, 4-sinf o‘qish darsligida esa “Najmiddin Kubro”, “Sulton Mahmud va Beruniy”, “Ibn Sino bilan tabib”, “Pahlavon va shoir” va “Hidi, tilimi va mazasidan” kabi rivoyatlarni oladigan bo‘lsak, bu rivoyatlarda, asosan, mardlik, tinchlik, Vatan qadri, mehr va ulug‘vorlik tuyg‘ulari e‘zozlanadi. Va o‘quvchilarni ham yuqoridagi tuyg‘ular bilan to‘yintiradi.

**Topishmoq va maqol** – bu ikki so‘z inson tafakkurining shakllanishida katta ahamiyatga egadir. Topishmoqlar insonni mantiqiy fikrlashga, topqirlikka va hozirjavoblikka o‘rgatsa, maqollar esa insonga odob-axloq o‘rgatadi. Maqol inson nutqini bezaydi, ta’sir kuchini oshiradi. Maqollar pandnasihatlar yoki o‘gitlar deb ham ataladi. Shuning uchun ham xalqimiz “Otalar so‘zi – aqlning ko‘zi” deb bejiz aytmagan. Hozirda esa aynan shunday maqollarni o‘rinlatadigan yoshlarimiz kamayib bormoqda. Uning o‘rniga esa rus va ingliz tilidan kirib

kelgan o'zlashma so'zlar va boshqa urfga kirgan shevalardan o'rinsiz ravishda foydalanish ko'payib bormoqda. Yoshlarimiz chiroyli, madaniyatli va aqlli gaplarni gapirishni emas "oldi-qochdi" va o'ynoqi so'zlardan foydalanishni afzal ko'rmoqdalar. Bu esa ham ma'naviyatimizga, ham milliyligimizga salbiy ta'sir qilayotgani achinarli, albatta. Maqolda ifoda qisqa, fikr lo'nda, mazmun aniq va tugal xulosa bo'lib, unda ibratli fikrlar aytiladi, bu keltirilgan fikrlar esa rad etib bo'lmaydigan hukm bo'ladi. Maqollarda ko'proq Ona Vatan, Ota-ona mehri, ilm-ma'rifat va boshqa ko'plab eng kerakli mavzular qamrab olingan. Xalq maqollari o'zbek xalqining milliy boyligi hisoblanadi. Shuning uchun undan vos kechmasdan darsliklarda, gazeta va jurnallarda, ommaviy axborot vositalarida ko'proq foydalanilsa ham milliyligimizni saqlagan bo'lamiz, ham bolalarni nutqi o'sishini tabiiy usulda rivojlantirgan bo'lamiz.

Topishmoq – xalqimizning eng qadimgi xalq og'zaki ijodi turi hisoblanib, o'quvchilarni topqirligini oshiradi. Ularni bilimini oshirishga yordam beradi. Bolalarning dastlab nutqi chiqayotganda kundalik hayotda (uy sharoitida) topishmoqlar juda ko'p foydalaniladi. Ayniqsa, uyda bu nima? u nima? kabi oddiy savollar ham topishmoqqa yetaklaydi. Bolalar o'zaro o'ynayotganda "O'ylaginimni top" o'yinini juda ko'p o'ynaydilar. Bu o'yinda bola: "Men bir narsani o'yladim. U judayam katta va u doimo muzdek turadi. Oshxonamizda joylashgan. Topingchi, u nima?" kabi savol berib topishmoq aytadi. Demak topishmoq topqirlik bilan bir qatorda atrof muhitni yanayam yaxshiroq o'rganishga va o'zlashtirishga yordam berar ekan.

Topishmoqlar boshqa janrlarning ichida ham uchraydi. Masalan, doston va ertaklarning ichida uchratishimiz mumkin. Topishmoqlar ertak va dostonlarni ichida ishtirok etsa, asarning badiiyligini oshiradi, ham qiziqarli bo'ladi. Shuning uchun bolalar ko'proq sarguzasht ertaklarini sevib o'qiydilar. Sarguzash ertaklarda, asosan, topishmoqlar uchraydi. Topishmoqlar rang-barang bo'lib, ular odam va olam bilan bog'liq barcha narsalarni qamrab oladi. Yoshligimizda o'ynagan quvlashmashoq, bekinmashoq va boshqa xalq o'yinlarida kimdir "xizmatda" qolishi kerak bo'lgan. Guruh ikkiga bo'linganda esa doimo xolislik talab qilingan. Sanashni, tez chopishni, tez harakat qilishni, chaqqonlikni, aldamaslikni va boshqa odob-axloq qoidalarini aynan shunday milliy o'yinlarimizni o'ynab o'rganganmiz. Shunday qilib, o'zbekning falsafasi, donoligi-yu topqirligi, fazilati-yu himmati, turli hayot sinovlariga munosabati xalq o'yin va hikmatlarida sayqallangan. Endilikda esa bolalar o'yinni telefon va internetdan o'ynamoqda. O'rtoqlik munosabatlari cheklanib bormoqda, bir-birlari bilan ko'chalarda o'ynab katta bo'lish o'rniga televizor va ayniqsa telefon-internet bilan ulg'aymoqda. Munosabatlar kamayib ketmoqda. Bu esa insonlarni egaizmga (Faqat o'zini o'ylashga) olib boradi. Muomula madaniyati yo'qoladi. Kam gapirib, kam muloqotda bo'lgan bolalarni nutqi to'liq rivojlanmay qoladi. Talaffuzga qiynaladi. O'z fikrini bayon eta olmaydi. Faqat o'z dunyosi bilan yashashga o'rganib qoladi. Yaxshini yomondan, ezgulikni yomonlikdan,



halolni haromdan, mehrni nafratdan, odobni beadabdan va boshqa shu kabi ikki tarafdama tushunchalarni ajratolmay qoladi. Qalbi bo'sh insonlar bo'lib voyaga yetadi. Shuning uchun ham biz o'quvchi-yoshlarimizni xalqchil bo'lib voyaga yetishishini tarafdorimiz.

Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning ma'naviyatini turli tahdidlardan asrashda xalq og'zaki ijodining o'rni kattadir. Xalq og'zaki ijodi yoshlarning kelajagini ta'minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Bolalarni bolalikdan kitobga mehr uyg'otish uchun xalqimiz uchun xalq og'zaki ijodi na'munalari juda qimmatlidir.

Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarining ma'naviyatini turli tahdidlardan asrashda xalq og'zaki ijodi na'munalarning o'rni ham beqiyos. Xalq og'zaki ijodi bola kelajagini ta'minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Xalq og'zaki ijodi namunalari bolalarning kitobga mehr uyg'otishdagi asosiy qimmatli manbaadir. Har bir bola dunyoga kelgan kunidanoq ona allasini eshitadi, yoshlik chog'ini buvi-bobojonlarini sarguzasht ertaklarini tinglab ulg'ayadi, mahalla ko'chalari va maktab sinfxonalarida maqol va topishmoqlar aytib xalqona o'yinlar o'ynaydi. Maqol va topishmoqlar bolalarning sodda so'zlarni talaffuz qilishga, adabiy til me'yorlarini dastlabki bosqichini o'rgatishga, muomula madaniyatini rivojlantirishga yordam beradi. Tez aytishlar esa o'quvchilarning nutqini rivojlantirishning eng asosiy xalq og'zaki ijodi janrlaridan biri hisoblanadi. Masalan, Soat soatni soatsozga sozlatdi, sovuqda tustovuq sovuq qotdi, qatiq qishda qotib qoladi, Jamila jiydani joyiga joyladi kabi tez aytishlar aynan o'quvchilar talaffuziga qiynalayotgan harf-tovushlar o'rganilishiga xizmat qiladi.

Keling boshlang'ich sinf o'quvchilarini nutqini faollashtirishda o'zbek milliy-ma'naviy merosidan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari haqida fikr yuritamiz.

Boshlang'ich sinf darsliklarida bolaning psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda xalq og'zaki ijodi namunlarini milliy-ma'naviy merosini o'rganish soddadan murakkabga qarab izchil ishlab chiqilgan.

Og'zaki nutqni o'stirishda mustaqil hikoya qilishga o'rgatish katta o'rin egallaydi. O'zi haqida, atrofida uchragan hodisalar haqida yoki suratlar va o'zi o'qigan ertaklari haqida gapirib, hikoyalar tuzishga o'rgatiladi. Savod o'rgatish davrida bolaning tuzgan hikoyasi mazmunan bog'langan, ma'lum darajada izchillikda Grammatik tomondan to'g'ri tuzilgan bo'lishi kerak. Savod o'rgatish davri o'zi ikkiga bo'linadi: tayyorlov davri (2 hafta davom etadi) va asosiy davr (31-dekabrgacha).

Savod o'rgatish davrining birinchi qismida (sentyabr-oktyabr):

- Tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish va tovush tarkibi haqidagi tasavvurlarini aniqlash va shakllantirish;
- Unli va undosh tovushlar haqida tushuncha berish;
- Jarangli va jarangsiz tovushlarni ajratishga o'rgatishda fonematik idrok va tasavvurni rivojlantirish;

- Oddiy analiz va sintez qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- Harflardan bo‘g‘in, bo‘g‘inlardan so‘z, so‘zdan gaplar hosil qilish;
- Gapni so‘zlarga, so‘zlarni bo‘g‘inlarga, bo‘g‘inlarni harflarga bo‘lish;
- Ma‘lum tovushlarning o‘rnini aniqlash (so‘z boshida, so‘z o‘rtasida, so‘z oxirida);
- So‘zda tovushlar ketma-ketligi va sonini aniqlash;
- Tovushlarni eshitib, anglashga o‘rgatish kabi bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘ladilar.

Savod o‘rgatish davrining ikkinchi qismida (noyabr-may):

- Berilgan tovushlarni harfiy belgisini topa olish;
- Kesma harflar yordamida tahlil-tarkib metodi bo‘yicha mahqlarni bajarishga o‘rgatib borish;
- Bo‘g‘inlarni o‘qiy olish;
- So‘zlarni o‘qiy olish va gap tuza olish;
- Rasm asosida erkin hikoya tuza olish;
- O‘qigan ertagini qayta so‘zlay olish;
- Savollarga javob topa olish;
- Ma‘lum mavzu doirasida berilgan topshiriqlarni mustaqil bajara olishi;
- O‘rtoqlari va oila a‘zolari bilan kommunikativ aloqaga kira olishi;
- Yosh xususiyatiga mos muammolarga duch kelib qolganda, aqlan yechim topish va boshqa ko‘plab og‘zaki va yozma nutqning ko‘rinishlaridan foydalana olishi mumkin.

#### Adabiyotlar:

1. Inomxo‘jayev S., Zunnunov A. Ifodali o‘qish asoslari. - Toshkent: O‘qituvchi, 1978.
2. Madayev O., Sobitova T. Xalq og‘zaki poetik ijodi. –Toshkent: ”Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2003.
3. Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari. - Toshkent: O‘qituvchi, 1993
4. Nizomiddin Mahmudov. O‘qituvchi nutqi madaniyati. - Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2007.
5. Oripov Q., Obidova M. Ifodali o‘qish. -Toshkent: O‘qituvchi, 1994.

#### РЕЗИОМЕ

Xalq og‘zaki ijodi – insoniyatga tengdosh eng qadimiy san‘at. O‘zbek xalqi ming yillar davomida yaratgan milliy xazinamizning nodir merosi bo‘lgan og‘zaki badiiy ijodi hamisha inson kamoloti, yurt farovonligi, jamiyat yetukligi borasida ma‘naviy ozuqa bo‘lib xizmat qiladi.

#### РЕЗИОМЕ

Народное искусство – древнейшее искусство человечества. Устное художественное творчество, являющееся редким наследием нашего национального достояния, созданное узбекским народом на протяжении тысячелетий, всегда служит духовной пищей для человеческого совершенствования, благополучия страны, зрелости общества.

#### SUMMARY

Folk art is the oldest art of humanity. Oral artistic creativity, which is a rare heritage of our national treasure, created by the Uzbek people for thousands of years, always serves as spiritual food for human perfection, the well-being of the country, and the maturity of society.